

MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI: ISONPARVARLIK PRINSIPI VA JAVOBGARLIK MEXANIZMLAR**Irnazarov Shuhrat***TerDU Yuridik Fakulteti “Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi” kafedrası o‘qituvchisi***Raxmatullayev Husan***Terdu Yuridik Fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (JIK) va tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilangan mahkumlarning huquq va majburiyatlarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asosiy e‘tibor mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solishga yo‘l qo‘yilmasligi kabi fundamental kafolatlar, ularning saylov, shaxsiy xavfsizlik, ijtimoiy ta‘minot huquqlarini amalga oshirish mexanizmlariga qaratiladi. Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasalarida (JIEM) tartib va xavfsizlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan majburiyatlar va qat‘iy taqiqlar batafsil ko‘rib chiqigan. Xulosada, O‘zbekistondagi jinoyat-ijro tizimi jazolash emas, balki tuzatish va ijtimoiy rehabilitatsiya tamoyillariga o‘tayotgani ta‘kidlangan.

Kalit So‘zlar: Mahkumlar huquqlari, Jinoyat-ijroiya kodeksi, insonparvarlik, qiynoqqa qarshi, shaxsiy xavfsizlik, resotsializatsiya, stigmatizatsiya, subkultura, saylov huquqi, JIEM, rehabilitatsiya, majburiyatlar.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ОСУЖДЁННЫХ: ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА И МЕХАНИЗМЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация: Данная статья посвящена глубокому анализу прав и обязанностей осуждённых, закреплённых в Уголовно-исполнительном кодексе Республики Узбекистан (УИК) и соответствующих нормативно-правовых актах. Анализ основан на гармонии международных стандартов и национального законодательства, обеспечивающих сохранение человеческого достоинства осуждённых в процессе исполнения наказания. Основное внимание уделено таким фундаментальным гарантиям, как недопустимость пыток в отношении осуждённых, а также механизмам реализации их избирательных прав, права на личную безопасность и социальное обеспечение. Наряду с этим подробно рассматриваются обязанности и строгие запреты, необходимые для обеспечения порядка и безопасности в учреждениях исполнения наказаний (УИН). В заключение подчёркивается, что уголовно-исполнительная система Узбекистана переходит от карательной модели к принципам исправления и социальной реабилитации.

Ключевые слова: права осуждённых, Уголовно-исполнительный кодекс, гуманизм, противодействие пыткам, личная безопасность, субкультура, ресоциализация, стигматизация, избирательное право, УИИ, реабилитация, обязанности.

KIRISH: Mahkumlarning huquq va majburiyatlari jinoyat-ijro tizimining barqaror va insonparvar faoliyatini ta'minlaydigan eng muhim huquqiy institutlardan biridir. Amaldagi qonunchilik, xususan Jinoyat-ijroiya kodeksi, mahkumlarning shaxs sifatidagi qadr-qimmati va asosiy insoniy huquqlarini jazoni o'tash jarayonida ham to'liq himoya qilishni ko'zda tutadi. Ular tibbiy yordam olish, mehnat va ta'limga jalb etilish, murojaat qilish, din erkinligi, shaxsiy xavfsizlik va qiynoqlardan himoyalaniish kabi fundamental huquqlarga egadirlar. Mahkumlarga tanlangan jazo turi ularning jamiyatdan to'liq ajralishi emas, balki nazorat ostida ijtimoiy hayotning muayyan qoidalari asosida yashashini anglatadi. Jinoyat-ijroiya tizimi jazoni ijro etish bilan birga, shaxsni tuzatish va uning jamiyatga qayta moslashishiga xizmat qilishi kerak. O'zbekiston qonunchiligi mahkumlarning huquqiy holatini belgilab berishda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jinoyat ijroiya kodeksi va shu kabi qonun hujjatlari xalqaro inson huquqlari me'yorlariga tayanadi. Mahkumlarga fuqarolik huquqlarini saqlab qolish imkoniyatining berilishi– bu jazo muddati tugagandan so'ng ularning ijtimoiy stigmatizatsiyasini kamaytirishga qaratilgan muhim qadamdir. Jazoni o'tash tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holdagi cheklashlar mahkumning shaxsiga emas, balki uning harakat erkinligiga va ayrim fuqarolik-siyosiy huquqlarigagina tegishli bo'lishi mantiqan to'g'ri. Jinoyat ijroiya kodeksining 8-moddasida mahkumlar huquqiy holatining asoslari belgilab qo'yilgan. Ya'ni mahkumlarga muassasa xodimlari va boshqa mahkumlar tomonidan qiynoqqa solinishi va ularga nisbatan zo'ravonlik yoki noqonuniy ravishda kuch ishlatilishi, shuningdek sha'ni qadr qimmatini kamsitishga yo'l qo'yilmasligi qayd etib o'tilgan. Bu qoida Jinoyat-ijroiya tizimining asosiy ustuni hisoblanadi. Bu, nafaqat jismoniy qiynoqlarni, balki psixologik bosim va insoniy sha'nini poymol etuvchi har qanday g'ayriinsoniy shart-sharoitlarni ham rad etishni anglatadi. Huquqni muhofaza qilish organlariga jazoni ijro etishda shafqatsizlikka chek qo'yish bo'yicha mutlaq majburiyat yuklaydi. Ushbu qat'iy taqiqning qonunda alohida ajratilishi, O'zbekistonning xalqaro huquq qoidalarini amalda ijro etayotganini yaqqol dalilidir. Jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan mahkumlarning huquq hamda majburiyatlari muayyan bir jazoni ijro etish tartibi va shartidan kelib chiqadi. Bunda mahkum jazoni ijro etish muassasasining turidan va tartibidan kelib chiqib ularni huquq va majburiyatlari cheklanib yoki ortib boradi. Mahkumlar bir nechta huquqlari mavjud bo'lib bular qatoriga; Jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish; ya'ni bunda mahkumlarga sud tomonidan jazo berilganda ular o'ziga

nisbatan berilgan jazo haqida va uni qay tartibda o'tash to'g'risida, muassasalarda belgilangan qoidalar haqida malumot va axborotlarni talab qilib olish huquqiga egadirlar.

Jazoni ijro etuvchi muassasalar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, yoki boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o'z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etishlari mumkin. Shuningdek o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olishlari. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo'lmagan taqdirda javob O'zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi. Javobni intizomiy qismga jo'natish va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta'minlanishi jinoyat ijroiya kodeksida belgilab qo'yilgan. Mahkumning o'z ona tilida murojaat qilish va javob olish huquqi hamda zarurat tug'ilganda tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati (shu jumladan surdotarjimon) – bu adolatlilik va tenglik tamoyilining amaliy ifodasidir. Bu, ayniqsa, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun muhimdir.

Tibbiy yordam olish huquqi, shuningdek pensiya va ijtimoiy ta'minot olish huquqining saqlanib qolishi– jazolash tizimi tuzatish funksiyasini bajarayotganini ko'rsatadi. Jazoni o'tash davrida olingan mehnat stajining pensiya hisobiga kiritilishi, mahkumning jazodan keyingi ijtimoiy himoyasini kafolatidir. Shaxsiy xavfsizlik huquqining alohida, keng moddada yoritilishi – tizimdagi jiddiy o'zgarishlar belgisidir. Agar mahkumning hayoti yoki sog'lig'iga tahdid tug'lsa, u muassasaning istalgan xodimiga murojaat qilishi va zudlik bilan xavfsiz joyga o'tkazilishi shartligi haqida ham qat'iy ravishda belgilab qo'yilgan Ushbu mexanizm mahkumlarni nafaqat tashqi xavflardan, balki boshqa mahkumlarning zo'ravonligidan ham himoya qilishga qaratilgan. Arizani uch sutka ichida ko'rib chiqish majburiyati (kechiktirib bo'lmaydigan hollarda darhol qaror qabul qilish) JIEM ma'muriyatining mas'uliyatini oshiradi va byurokrtiyani kamaytiradi. Eng muhim yangiliklardan biri – bu saylov huquqi masalasidir. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun hukm qilingan mahkumlarning saylovlarda ishtirok etishi to'liq ta'minlanganlidir. Qonunchilikda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun hukm qilingan mahkumlarni saylov huquqidan mahrum etish faqat qonun va sud qarori asosida amalga oshirilishi – fuqarolik huquqlarining himoyasi uchun konstitutsiyaviy kafolatdir. Bu, mahkumning jazoni o'tashi uning siyosiy hayotdagi ishtirokini to'g'ridan-to'g'ri va avtomatik ravishda cheklamasligini anglatadi.

Huquqlar bilan bir qatorda, tizim samarali ishlashi uchun mahkumlarning intizom, tartib va xavfsizlikni ta'minlashdagi qat'iy majburiyatlari va cheklovlari ham mavjud. Mahkumlarning huquqlarini kafolatlash bilan bir qatorda, qonunchilik jazoni ijro etish tizimining samarali va xavfsiz ishlashi uchun ularga aniq majburiyatlar va qat'iy cheklovlar yuklaydi. Bu talablar mahkumning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga,

ularda tartiblilik va jamiyat normalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bular qatoriga: Jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioya etishga: Bu majburiyat JIEMning ichki tartib qoidalari, kun tartibi va saqlash rejimining barcha talablariga so'zsiz amal qilishni anglatadi. JIEM ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga: Ma'muriyatning har bir ko'rsatmasi qonunchilik (JIK, qoidalar) doirasida bo'lishi shart. Bu mahkumlar orasidagi tartibsizliklar, guruhlanishlarga yo'l qo'yimaslik va tezkor boshqaruvni ta'minlash uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. JIEM mol-mulkini asrab-avaylash, davlat mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish, zararni qoplash bilan bog'liq muammolarni oldini olish. Mehnatga vijdonan va halol munosabatda bo'lish mahkumlarda mehnatsevarlik, javobgarlik va ijtimoiy foydali mehnatga hurmat hissini shakllantirish. Bu tuzatish jarayonining muhim elementidir.

Gigiyena, tartib va birxillik Yashash va ish joylarini toza tutish, ko'rpa-to'shakni bir xil qilib yig'ishtirish hamda belgilangan namunadagi kiyim kiyib yurish (manzil-koloniylar istisno). Bu tibbiy-sanitariya normalariga rioya etish va ichki intizomni mustahkamlash uchun zarur. Namunaviy belgilarni taqib yurish Tezkor identifikatsiyani ta'minlash va nazoratni osonlashtirish, rejim talablarini bajarishga o'rgatish. Binolarni tozalash, hududni obodonlashtirish muassasani saqlashda mahkumlarning ishtirokini ta'minlash, ularda jamoaviy mehnatga mas'uliyat hissini oshirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Kamera bo'yicha navbatchilik o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, intizom va mas'uliyatni o'rgatishga xizmat qiladi. O'zaro va ma'muriyat bilan xushmuomalada bo'lish Ichki mojarolarning oldini olish, axloqiy-madaniy normalarga rioya etishni talab qilish. Bu shartlar shunchaki qoidalar to'plami emas, balki resotsializatsiya (jamiyatga qaytarish) uchun zarur bo'lgan madaniyat va tartib ko'nikmalarini mahkum ongiga singdirish vositasidir. Ularni bajarmaslikning javobgarlikka sabab bo'lishi esa bu shartlarning qat'iyligini ko'rsatadi.

Qonunchilik JIEM ichidagi xavfsizlikka, ma'naviy-axloqiy muhitga va qonuniylikka tahdid soluvchi bir qator harakatlarni qat'iyan taqiqlaydi. Ruxsatsiz hududni (JIEM yoki belgilangan hududni) tark etish: Bu qochishga urinish deb baholanadi va eng og'ir intizomiy jazoga sabab bo'ladi. Ruksatisiz ajratilgan uchastka yoki ob'yektlardan tashqariga chiqish/kirish: Bu nazoratni yo'qotish, noqonuniy aloqalar o'rnatish, taqiqlangan narsalarni olib kirish yoki chiqarishning oldini olishga qaratilgan. Ruksatsiz yotoq joyini o'zgartirish va unga parda tutish: Bu qoida tezkor nazoratni ta'minlash va kamera ichida ko'zdan yashirin jinoiy harakatlarni amalga oshirishni oldini olish uchun o'rnatilgan. Jargon so'zlar ishlatish va laqab qo'yish jinoiy subkulturaning, norasmiy iyerarxiya va bosimning tarqalishiga chek qo'yish, mahkumlar orasida insoniy muomalani o'rnatish maqsadida bularga chek qo'yilgan. Tatuировka chizishdagi taqiqlar esa, tatuировkalar ko'pincha jinoiy guruhlariga

mansublik, o'g'rilik yoki boshqa jinoiy "kasb"ni ifodalagani sababli, ularni taqiqlash jinoiy madaniyatni yo'qotishga qaratilgan. Biror manfaatni ko'zlab o'yinlar tashkil qilish va o'ynash Qimor va pul tikilgan o'yinlar JIEMda janjal, qarzdorlik va zo'ravonlikning asosiy manbai bo'lgani uchun qat'iy qat'iy taqiqlanadi. Devorlarga yozish, chizish, yopishtirish Muassasaning estetik va sanitar holatini saqlash, shuningdek noqonuniy yozishmalar yoki kodli xabarlar almashinuvining oldini olish ham mahkumlarni qat'iy tartiblarga rioya qilishga qaratilgan.

XULOSA: Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, O'zbekiston jinoyat-ijroiya qonunchiligidagi mahkumlarning huquq va majburiyatlariga oid qoidalar, jazoning maqsadi faqatgina izolyatsiya qilish emas, balki shaxsni tuzatish ekanini tasdiqlaydi. Qonunchilik, bir tomondan, mahkumlarning asosiy insoniy va fuqarolik huquqlarini (ayniqsa, qiynoqqa qarshi va shaxsiy xavfsizlik huquqini) qat'iy himoya qiladi; ikkinchi tomondan, jazoni o'tash davridagi intizom va qonuniylikni ta'minlaydi. Bu muvozanat, real reabilitatsiya uchun zamin yaratadi va mahkumlarning jamiyatga sog'lom shaxs sifatida qaytishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi.
3. Ichki ishlar vazirining 174-sonli buyrug'i.
4. Jinoyat ijroiya huquqi darsligi: S.Niyozova, K.Hakimova, D.Israilova, Sh.Xaydarova, Z.Shamshiddinov
5. Internet saytlar:
<http://www.https://uz.wikipedia.org>
<http://www.lex.uz>
<http://www.advice.uz>
<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/makumlarning-uulari>
www.norma.uz